

MILLIY ROMAN TARAQQIYOTI VA ADABIY TANQID MAKTABINING SHAKLLANISHI

Ubaydullayeva Rayxon Abdujalil qizi,

Guliston davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va tillarni

o‘qitish kafedrasini o‘qituvchisi

E-mail: rayhon121274@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek romanlarida ijtimoiy masalalarning badiiy talqini hamda roman poetikasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Asarda realistik tasvir, psixologik tahlil, allegoriklik, simbolizm, intertekstuallik, ichki monolog va ong oqimi kabi badiiy vositalarning qo‘llanishi yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida roman janrini o‘rganishga hissa qo‘shgan yetuk olimlarning ilmiy qarashlari tahlil etiladi. Jumladan, Izzat Sulton, Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Matyoqub Qo‘shjonov, Umarali Normatov kabi olimlarning roman poetikasiga oid nazariy va metodologik yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘zbek romani poetikasini o‘rganish istiqbollari va zamonaviy metodologik yondashuvlarning ahamiyati asoslab beriladi

Kalit so‘zlar: O‘zbek romani, roman poetikasi, ijtimoiy masala, psixologik tahlil, ichki monolog, ong oqimi, intertekstuallik, strukturalizm, narratologiya, adabiy tanqid, milliy roman.

Аннотация. В данной статье на научно-теоретической основе анализируются художественная интерпретация социальных проблем в узбекских романах, а также этапы формирования и развития поэтики романа. В исследовании раскрывается функциональная значимость таких художественных средств, как реалистическое изображение, психологический анализ, аллегория, символизм, интертекстуальность, внутренний монолог и поток сознания в жанре романа. Кроме того, обобщаются и аналитически оцениваются теоретические и методологические взгляды таких учёных, как Иzzат Султан, Озод Шарафиддинов, Наим Каримов, Матёкуб Кушжонов, Умарали Норматов, внесших значительный вклад в изучение поэтики романа в узбекском литературоведении. В статье также обосновывается актуальность современных методологических подходов и перспективы дальнейшего изучения поэтики узбекского романа.

Ключевые слова: узбекский роман, поэтика романа, социальная проблема, художественная интерпретация, психологический анализ, внутренний монолог, поток сознания, интертекстуальность, структурализм, нарратология, литературная критика, национальный роман.

Abstract. This article provides a theoretical and analytical examination of the artistic interpretation of social issues in Uzbek novels, as well as the stages of formation and development of novel poetics. The study highlights the functional significance of such artistic devices as realistic depiction, psychological analysis, allegory, symbolism, intertextuality, internal monologue, and stream of consciousness within the novel genre. It also summarizes and critically evaluates the theoretical and methodological approaches of prominent scholars such as Izzat Sulton, Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Matyoqub Qo‘shjonov, and Umarali Normatov, who made significant contributions to the study of novel poetics in Uzbek literary criticism. The article substantiates the relevance of contemporary methodological approaches and outlines perspectives for further research on the poetics of the Uzbek novel.

Keywords: uzbek novel, novel poetics, social issue, artistic interpretation, psychological analysis, internal monologue, stream of consciousness, intertextuality, structuralism, narratology, literary criticism, national novel.

Kirish. XX–XXI asrlar o‘zbek romanchiligi milliy tafakkur taraqqiyoti, ijtimoiy ong va badiiy estetik qarashlar evolyutsiyasini aks ettiruvchi muhim adabiy hodisa sifatida

shakllandi. Roman janri jamiyat hayotidagi murakkab jarayonlarni, inson va muhit o'rtasidagi ziddiyatlarni, ma'naviy-axloqiy izlanishlarni keng epik qamrovda tasvirlash imkoniyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ijtimoiy muammolarni badiiy talqin etishda yozuvchilar tasviriy vositalarning rang-barang tizimidan samarali foydalanib, asarlarning estetik qudratini oshirishga erishdilar. Zamonaviy o'zbek romanlarida inson ruhiyati tahlili yetakchi tamoyillardan biriga aylandi. Qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berishda ichki monolog, ong oqimi, ruhiy kolliziyalar, ramziy va majoziy qatlamlardan keng foydalanilishi badiiy tafakkurning chuqurlashganini ko'rsatadi. Bu jarayon roman poetikasining takomillashuvi bilan bevosita bog'liq bo'lib, shakl va mazmun uyg'unligining yangi bosqichini yuzaga keltirdi.

Adabiyotlar tahlili. Milliy romanchilik taraqqiyoti adabiyotshunoslik ilmida ham izchil tadqiq etilib kelinmoqda. Roman janrining nazariy asoslari, uning syujet-kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi, badiiy nutq xususiyatlari hamda ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishlari turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Bu tadqiqotlar nafaqat roman poetikasining ilmiy mezonlarini shakllantirishga, balki milliy adabiyotning jahon adabiy jarayonidagi o'rnini belgilashga ham xizmat qilmoqda.

XX-XXI asr tanqidchilik maktabi o'zining yetuk va sarmahsul ijod qilgan olimlari bilan tanqidchilik tarixida qoladi, albatta. Ustozlarning ishini davom ettirib romanchilik sohasida T.Boboyev, H.Umurov, B.Karimov, Q.Yoldoshev, D.Quronovlar o'z asarlari va maqolalarini e'lon qildilar.

Bugungi kunda milliy romanning yuzaga kelishi, rivojlanishi va mukammallashish jarayonlari, uning taraqqiyotiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar, janr va uslubning xilma-xilligi, syujet va konflikt, badiiy nutq poetikasi, milliy ruhning ifodalanishi, poetik mahoratga oid muammolar A.Rahimov, D.To'rayev, H.Karimov, D.Quronov, Y.Solijonov, Z.Pardayeva, Sh.Doniyorova, A.Nosirov, T.Qurbonov, Z.Rahimov, Sh.Isayeva, T.Shermurodov, M.Pirnazarova, B.Xoliqov, B.To'rayev, A.Nasirov, I.Yakubov kabi olimlarning dissertatsion tadqiqotlarida batafsil o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda o'zbek romanlarining poetikasini tahlil qilishda qiyosiy-adabiy, tarixiy-tipologik hamda struktural yondashuvlardan foydalanildi. Asarlardagi badiiy vositalar, xususan, psixologik tahlil, ichki monolog va intertekstuallik elementlari kompleks tahlil asosida o'rganildi. Shuningdek, yetuk adabiyotshunoslarning ilmiy qarashlari tizimli va konseptual tahlil usullari orqali umumlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. O'zbek adiblari romanlarda ijtimoiy masalalarni yoritishda realistik tasvir, psixologik tahlil, allegoriklik, simvolizm, intertekstuallik kabilardan foydalanib romanlarning badiiy ta'sirchanligini oshiradilar. Aksar o'zbek romanlarida qahramonlarning ichki dunyosini, ularning ruhiy kechinmalarini ko'rsatish uchun ichki monolog, ong oqimi va ongsizlik holati tasvirlari keng qo'llaniladi. Ijtimoiy masalalarni yoritishda kinoya, sarkazm va yumordan ham foydalanilgan.

O'zbek romani poetikasini o'rganishga hissa qo'shgan bir qator yetakchi olimlar adabiy tanqidchilik maktabini yaratdilar. Ular o'zbek adabiyotshunosligida roman janrini o'rganishga o'zining ilmiy tadqiqotlari, maqolalari va monografiyalari bilan katta hissa qo'shgan bir qancha yetakchi olimlardir.

Izzat Sulton adabiy asarlarni tahlil qilishda badiiy mahorat masalasiga alohida e'tibor qaratgan adabiyotshunoslardan biri. I.Sulton romanlarni tahlil qilishda ulardagi voqealarning bayon etilishi, hikoyachining o'rni va qahramonlarning nutqi kabi masalalarga alohida ahamiyat bergan. Munaqqid o'zbek romanlaridagi psixologik tahlil masalalarini, qahramonlarning ichki kechinmalarini va ularning ruhiy holatini o'rganishga ham o'z hissasini qo'shgan.

*Ozod Sharafiddin*ovning tadqiqotlari, asosan, romanlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga, ulardagi milliy o'ziga xoslik masalalariga va muallifning g'oyaviy pozitsiyasiga qaratilgan. Uning "Ijodni anglash baxti" asari istiqloq davri adabiyotshunosligining muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. U romanlardagi obrazlarni, xususan, "ijobiy qahramon" obrazining o'ziga xos xususiyatlarini va uning adabiyotidagi rolini tahlil qilib bergan.

Naim Karimov o'zbek adabiyotshunosligida XX asr adabiyoti, xususan, roman janrining o'rganilishiga o'zining fundamental tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shgan olimlardan biri. N. Karimov romanlarni tahlil qilishda ularning tarixiy va ijtimoiy-madaniy kontekstiga alohida e'tibor bergan. Uning tadqiqotlarida o'zbek romanlarida milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy muammolar kabi mavzularning yoritilishi batafsil o'rganilgan.

Matyoqub Qo'shjonov adabiyot nazariyasi, xususan, poetika masalalari bo'yicha o'zbek adabiyotshunosligida taniqli olimlardan biridir. Uning tadqiqotlari roman janrining nazariy asoslarini o'rganishga, uning poetik xususiyatlarini aniqlashga va o'zbek romanlarining adabiy tasnifini ishlab chiqishga qaratilgan. Olim romanlarni tahlil qilishda ularning syujeti, kompozitsiyasi, xarakterlari va tili kabi masalalarga alohida e'tibor bergan. Akademik M. Qo'shjonovning ayrim kuzatishlarida Muhammad Ali, O.Muxtor, E.Samandar romanlari tahlilga tortildi. Adib adabiy asarlarni tahlil qilishda turli metodologik yondashuvlarni, xususan, strukturalizm, narratologiya va intertekstuallik kabi nazariyalarni qo'llashning ahamiyatini ta'kidlagan.

*Umarali Normatov*ning tadqiqotlari romanlarning nazariy asoslarini, ularning poetik xususiyatlarini va o'zbek romanlarida qo'llanilgan badiiy uslublarni o'rganishga bag'ishlangan. U.Normatov romanlarni tahlil qilishda ulardagi badiiy timsollar, metaforalar va boshqa stilistik vositalarning rolini o'rganishga, ularning ma'no ko'lamini ochib berishga harakat qiladi. Professor U. Normatov o'z ilmiy izlanishlarida Muhammad Ali, O.Muxtor, E.Samandar, U.Hamdani, I.Sulton, A.Yo'ldosh va Zulfiya Qurolboy qizi nasrida turli falsafiy asoslarga tayangan adabiy-ijodiy tamoyillarning mavjudligiga alohida e'tibor qaratdi. U estetik qiymatga ega bo'lgan adabiy oqimlar va maktablarga hurmat

bilan yondashish zarurligini ta'kidladi. U.Normatovning tadqiqotlarida S.Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov va Muhammad Ali kabi mustaqillik davri romannavislarining badiiy mahorati, adabiy jarayon muammolari, yozuvchilarning poetik dunyosi, ayrim asarlarning ijodiy tarixi va badiiyati hamda muayyan munaqqidlarning ijodiy tamoyillari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, romanlardagi falsafiy va ma'naviy masalalarga, ularning o'quvchiga ta'siriga ham alohida e'tibor qaratadi.

Yuqorida tilga olingan adabiyotshunoslar, o'zbek romanini o'rganishda turli xil tadqiqot uslublari va yondashuvlardan foydalanganlar. Ba'zi olimlar romanlarning g'oyaviy-mafkuraviy mazmuniga, ulardagi ijtimoiy-siyosiy muammolarga ko'proq e'tibor qaratgan bo'lsa, boshqa olimlar romanlarning shakliy xususiyatlariga, ularning badiiy uslubiga va poetik xususiyatlariga ko'proq ahamiyat berganlar. Shuningdek, adabiyotshunoslikda, turli metodologik yondashuvlar (strukturalizm, narratologiya, psixoanalitik tanqid) ham qo'llanilgan.

Ushbu olimlarning tadqiqotlari o'zbek romanlarining o'ziga xos xususiyatlarini anglashga yordam beradi va adabiyotshunoslik fanining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Bu adabiyotshunoslar adabiy asarlarni tahlil qilishning nazariy asoslarini shakllantirishga, o'zbek romanining poetik xususiyatlarini va adabiyotshunoslik

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyotshunosligida roman poetikasini o'rganish doimiy rivojlanishda bo'lgan muhim yo'nalishdir. Kelajakda, yangi nazariyalarni o'zlashtirish, zamonaviy adabiyotshunoslik tendensiyalariga e'tibor qaratish, qiyosiy va interdisiplinar yondashuvlardan foydalanish, tadqiqotdagi bo'shliqlarni to'ldirish hamda o'zbek romanlarining o'ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish ushbu sohaning kelajak istiqbollari belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqotlar o'zbek romanining jahon adabiyotidagi o'rnini aniqlashga, adabiyotshunoslik fanining rivojlanishiga, o'zbek madaniyatining boyitilishiga xizmat qiladi. O'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan vazifalardan biri – roman janrini o'rganish orqali o'zbek xalqining o'zligini anglashiga, milliy adabiyotning jahon adabiyotida munosib o'rin egallashiga hissa qo'shishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Иккинчи нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986;
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004.
4. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: SHARQ, 2019. – 543 б.
5. Каримов Н. ЎзФА академиги XX аср ўзбек адабиёти жаҳон адабиёти контекстида.
6. <https://malumot.ru/naim-karimov-uzfa-akademigi-hh-asr-uzbek-adabiyoti-zhaxon-adabiyoti-kontekstida>.
7. Каримов Н. Ойбек. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985; Шу муаллиф. Ойбек ва Зарифа. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990.
8. Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992.
9. Қўшжонов М. Шоир, драматург, романнывис. – Тошкент: Чўлпон НМИУ, 2005.

10. Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари / Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Жилд 1. – Тошкент: Фан, 1991.
- a. Норматов У. Насримиз анъаналари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
11. Норматов У. Қодирий боғи. – Тошкент, 1994; Ўтган кунлар ҳайрати. – Тошкент, 1997.
12. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000.
13. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2007.
14. Йўлдош Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
15. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2004.

